



MAJBURIYATLARNI HISOBGA OLIHNING AMALDAGI TARTIBI VA UNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHNING ZARURIYATI

PhD Pashaxodjayeva Dildora

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

ORCID: 0000-0001-8015-957X

phdildora@mail.ru

Ikromova Odinaxon

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

ORCID: 0009-0003-2077-4169

ikromova.odina1999@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida uyg'unlashtirish hamda bu orqali jahon bozoriga aniq va ishonchli ma'lumotlar bilan kirish, majburiyatlar hisobining yuritilishi va uning xalqaro standartlar asosida takomillashtirilishining zaruriyati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611 qarori yurtimizda MHXSni rivojlantirish uchun muhim asos bo'lganligi haqida keltirib o'tiladi.

Kalit so'zlar: moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, majburiyatlar hisobi, milliy standartlar, debitor qarzlar, kreditor qarzlar.

ДЕЙСТВУЮЩИЙ ПОРЯДОК УЧЕТА ОБЯЗАТЕЛЬСТВ И НЕОБХОДИМОСТЬ ЕГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ

PhD Пашаходжаева Дилдора

Самаркандский институт экономики и сервиса

Икромова Одинахон

Самаркандский институт экономики и сервиса

Аннотация. В данной статье рассматривается необходимость гармонизации бухгалтерского учета в Республике Узбекистан на основе международных стандартов финансовой отчетности и тем самым выхода на мировой рынок с точной и достоверной информацией, ведения учета обязательств и его совершенствования на основе международных стандартов, а также то, что Постановление Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по переходу на международные стандарты финансовой отчетности» №ПП-4611 от 24 февраля 2020 года послужило важной основой для развития МСФО в нашей стране.

Ключевые слова: международные стандарты финансовой отчетности, учет обязательств, национальные стандарты, дебиторская задолженность, кредиторская задолженность.

THE CURRENT PROCEDURE FOR ACCOUNTING OBLIGATIONS AND THE NEED TO IMPROVE IT ON THE BASIS OF INTERNATIONAL STANDARDS

PhD Pashaxodjayeva Dildora

Samarkand Institute of Economics and Service

Ikromova Odinakhon

Samarkand Institute of Economics and Service

Abstract. *This article discusses the need to harmonize accounting in the Republic of Uzbekistan on the basis of international financial reporting standards and thereby enter the world market with accurate and reliable information, maintain accounting for liabilities and improve it on the basis of international standards, as well as the fact that the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan "On additional measures for the transition to international financial reporting standards" No. PQ-4611 dated February 24, 2020 was an important basis for the development of IFRS in our country.*

Keywords: *international financial reporting standards, accounting for liabilities, national standards, accounts receivable, accounts payable.*

Kirish.

Dunyo mamlakatlari iqtisodiyotining integratsiyalashuvi va mamalakatlar tomonidan faol investetsiya siyosatining qo'llanilishi, ishonchli, real va hamma uchun birdek tushunarli bo'lgan moliyaviy axborotlarga bo'lgan talabning yuqoriligini ko'rsatadi. Bunday turdagi axborotlar asosan buxgalteriya hisobi ishining natijasida vujudga keladi va moliyaviy hisobotlar ko'rinishida axborot iste'molchilariga taqdim etiladi. Biz bilamizki, buxgalteriya hisobining pirovard natijasi (yakuni) bu moliyaviy hisobotlar bo'lib hisoblanadi. Moliyaviy hisobotlarning asosiy vazifasi o'z o'rnida ichki va tashqi axborot foydalanuvchilarini real moliyaviy axborotlar bilan ta'minlash bo'lib hisoblanadi. Moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar ko'lamini kengaytirish va barcha uchun tushunarli tarzda tayyorlanishi hamda iqtisodiyotimizni xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini oshirish maqsadida moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlar asosida tayyorlanmoqda. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) – bu umumjahon biznes tilidir. Mazkur standartlar kompaniyalar va tashkilotlar o'zlarining moliyaviy holatlari to'g'risida hisobotni qanday tarzda tayyorlashini belgilaydi. Ushbu standartlarga asoslangan hisobotni butun dunyoda tushunishadi.

Mamlakatimizda ham iqtisodiyotimizni yanada rivojlantirish hamda jahon maydonida nufuzini yanada mustahkamlash maqsadida ushbu standartlardan foydalanish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli "Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar 2021-yil 1-yanvardan boshlab MHXS asosida buxgalteriya hisobini yuritilishini tashkil etdi va 2021- yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlay boshlashdi.

Shunday qilib, majburiyatlar vositasida tadbirkor o'z ishini oqilona tashkil etgan holda uni barcha zaruriy narsalar bilan ta'minlaydi, o'z tovarini sotadi va buning oqibatida boshqa shaxslar oldida yuzaga kelgan majburiyatlarni bajaradi. Davlat moliyasi holatiga ta'sirning jiddiy omillaridan biri mamlakatda amal qilayotgan davlat moliyaviy nazorati, moliyaviy nazorat va audit hisoblanadi. Korxonalar majburiyatlarini hisoblash tizimiga makroiqtisodiy yondashuv hisobot ma'lumotlarini taqdim etish metodlarining tarmoq va umuman mamlakatlarning iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlashdan iborat. Milliy iqtisodiy maqsadlar iqtisodiy tanazzul vaqtida kapital qo'yilmalarni ko'payishini rag'batlantiruvchi moliyaviy hisobotni talab etadi.

Adabiyotlar sharhi.

“Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos” nomli O‘zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi milliy standartida, “Majburiyatlar – shaxsning (qarzdorning) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan ishni amalga oshirish, masalan, mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, pul to‘lash va boshqa majburiyatlaridir yoxud muayyan xatti-harakatdan tiyilib turish majburiyatidir, kreditor esa qarzdordan o‘z majburiyatlarini bajarishini talab qilishga haqlidir”.

Xoshimovning (2004) fikricha “Subyektning majburiyatlari – bu oldingi amalga oshirilgan muomalalar natijasi yoki kelajakda o‘zida mujassamlangan iqtisodiy nafning chiqib ketishi yoki yangi majburiyatlarning vujudga kelishi bilan yakunlanadi.”

Boshqa bir iqtisodchi olim Maxmudovning (2006) fikricha, majburiyat bir korxonaning ikkinchisiga bo‘lgan qarzdorligini ko‘rsatuvchi, ularning so‘ndirilishi esa, qarzdor korxonaning aktivlarini kamaytiruvchi, oldindan yuz bergan xo‘jalik muomalalarining natijasidir.

Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonunda “Aktivlar, majburiyatlar, xususi kapital, zahiralar, daromadlar, xarajatlar, foyda, zararlar va ularning harakati bilan bog‘liq xo‘jalik operatsiyalari buxgalteriya hisobining obyektlaridir” deb ta’kidlangan. Bundan ko‘rinib turibdiki, majburiyatlar buxgalteriya hisobining muhim obyektlari sirasiga kiritilgan.

To‘ychiev (2010) ta’kidlaganidek, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida majburiyatlar miqdorini doimiy nazorat qilib turish talab etiladi. Bu esa majburiyatlar hisobi va hisoboti takomillashtirishni taqozo etadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada majburiyatlar hisobining xalqaro standartlar asosida yuritilishi bo‘yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ishlari o‘rganildi va tahlil qilindi. Tahlil jarayonida kuzatish, tahlil qilish usullaridan hamda rasm va jadvallardan foydalanildi. Shuningdek, bu sohada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va bunda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar haqida taklif va xulosalar keltirib o‘tilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Buxgalteriya hisobi nuqtai nazaridan majburiyat xo‘jalik faoliyatida yuz bergan voqeani o‘zida aks ettirib, bu axborot moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarga taqdim etilishi lozim. O‘z navbatida, majburiyatlar paydo bo‘lishi, o‘zgarishi va bekor qilinishi holatlari moliyaviy hisobotda umumiy yondashuvlar bilan aniqlanadi.

Milliy hisob tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, buxgalteriya hisobining muhim ob’ektlaridan biri hisoblangan majburiyatlarga alohida e’tibor qaratiladi. Bugungi kunda buxgalteriya hisobidan majburiyatlarni baholash, tasniflash va tan olish bilan bog‘liq muammolar yuzaga kelmoqda.

“Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etishning konseptual asoslari” deb nomlangan O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartida majburiyatni odatda, aktiv olinganda yoki xo‘jalik yurituvchi sub’ekt aktivni sotib olish to‘g‘risida bitimga kirishgan daqiqadan paydo bo‘ladi, deb ko‘rsatilgan.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan ta’rifda majburiyatlar tushunchasiga chegara qo‘yilmagan. Ushbu ta’rifning qulayligi rivojlangan yoki rivojlanayotgan mamlakatlarda ham, yirik yoki kichik korxonalarda qo‘llanishi mumkin.

Moliyaviy instrument bir tashkilotda moliyaviy majburiyatni, boshqa tashkilotda moliyaviy majburiyat yoki qarzli instrumentni yuzaga keltiradigan bitimdir.

MHXSga muvofiq majburiyat buxgalteriya ma’nosida – eng avvalo “aktiv” va “kapital” singari balans elementidir. MHXS tomonidan bu uch tushunchaning maxsus qoidalarini ko‘rib chiqamiz. MHXSga binoan aktivlar kompaniya tomonidan nazorat qilinayotgan, o‘tgan davrlardagi holatlar natijasida kelajakda iqtisodiy foyda kutilayotgan zahiralaridir; majburiyat – kompaniyaning o‘tgan davrlardagi holatlardan keyin paydo bo‘lgan iqtisodiy foydaning

ketishini boshqaradigan qarzdorligidir; kapital – kompaniyaning barcha majburiyatlarini chiqarib tashlagandan keyin qolgan aktivlarining qismidir. Kompaniya aktivlarining barcha majburiyatlarini firmaning kapitali sifatida chiqarib tashlaganidan so‘nggi qismi sifatida korxona o‘zlik mablag‘larining manbalari deb atalmish summa, ya‘ni balans aktivlari o‘rtasida kreditor qarzdorlik passivida ko‘rsatiladigan farq summasi tushuniladi.

O‘zlik mablag‘lari manbalari talqiniga moliyaviy hisobot elementi tarzida ikki tomonlama yondashish mumkin. Birinchi holatda kapital korxonaning qarzdor bo‘lmagan mablag‘larini baholashning summasi, ya‘ni balansli tenglikni yuzaga keltiradigan o‘lcham sifatida tahlil qilinadi. Bu yerda kapital yoki mablag‘larning o‘z manbalari mulk va balansni tenglashtiradigan kreditor qarzdorlik o‘rtasidagi tafovut tushuniladi.

Mazkur yondashuv uzluksizlik buxgalteriya prinsipiga zid keladi, unga ko‘ra “moliyaviy hisobot odatda kompaniya yaqin kelajakda faoliyat ko‘rsatayapti va bundan buyon ham davom etaveradi degan taxmin asosida tuziladi”. Shu bilan birga, korxona o‘z kapitali o‘lchamini bunday talqin qilishda xo‘jalik yurituvchi birlik yoki korxonaning mulk jihatdan alohida turishining buxgalteriya prinsipi tarzida qo‘llashi mumkin. Bu prinsipga muvofiq buxgalteriya hisobining ma‘lumotlari uning nomidan moliyaviy hisobot olib borilayotgan korxonaning, uning mulkdorlari nomidan mulkiy va majburiy jihatdan alohida turishini ko‘rsatishi lozim.

Shunday qilib, MHXS majburiyat qoidasining korxona moliyaviy hisoboti elementi sifatidagi tahlili quyidagi ikki xulosani chiqarish imkonini beradi:

- Majburiyat kategoriyasining MHXS tomonidan berilgan qoidasi faqatgina buxgalteriya xarakteriga ega, buxgalteriya atamalaridan qurilgan va buxgalteriyadan tashqari qonunchilikda ishlatiladigan “majburiyat” tushunchasi qoidalari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanmagan.

- Korxonaning majburiyati yuridik fakt sifatida aktiv, majburiyatlar, kapital singari buxgalteriya kategoriyalari elementi tarzida qaralishi mumkin. Ayni paytda korxona yuridik majburiyatini tan olishning buxgalteriya hisobining aktiv, majburiyat yoki kapital tarzidagi maqsadlari uchun mezonlari MHXS tomonidan aniq belgilanmagan.

Shunday qilib, MHXS har qanday buxgalteriya hisobining majburiy asosini e‘tirof etadi. 1-son “Hisob yuritish siyosati va moliyaviy hisobot” nomli buxgalteriya hisobining milliy standartiga ko‘ra “aktivlar, xizmatlar va ishlar xarid qilinishining tannarxi yoki qiymati majburiyatlarni baholash negizi bo‘lib hisoblanadi”.

Majburiyatlar umumiy jihatdan buxgalteriya balansida aktivlar manbai sifatida namayon bo‘lsada, har biri turli xil iqtisodiy ma‘noga, tarkibiy qismlarga va boshqa fundamental farqlovchi xususiyatlarga egadir. Bu esa, ularning har birini alohida hisob obyekt sifatida qarashga asos bo‘ladi.

Buxgalteriya hisobi milliy standart (BHMS)lari kontseptual asoslarida majburiyatlarning asosiy tavsifi sifatida xo‘standar yurituvchi sub’ektlarning boshqa yuridik va jismoniy shaxslar oldida joriy javobgarlikka ega bo‘lishlik ekanligi ko‘rsatilgan. Masalan, olingan tovar-moddiy zahiralar va xizmatlar uchun to‘lanadigan summalar.

Ushbu hujjatda majburiyatlar o‘tgan hodisa va jarayonlarning natijasi o‘laroq, aktiv olingandan yoki xo‘jalik sub’ekti aktivni xarid qilish bo‘yicha bitimga kirishganda vujudga kelishi ta’kidlangan.

MHXSlarida “Majburiyat – bu o‘tgan davrdagi hodisalardan kelib chiqadigan kompaniyaning joriy qarzdorligidir, qaysiki uning uzilishi iqtisodiy nafni o‘zida mujassamlantirgan kompaniya resurslarining chiqib ketishiga olib keladi” deb ta’rif berilgan.


Milliy hisob tizimida majburiyat sirasiga kreditor va debitor qarzlari, baholanuvchi majburiyatlar (zahiralar), shartli majburiyatlar kiradi. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda majburiyat deganda, eng avvalo, sodir bo‘lgan turli hodisalar yoki operatsiyalar natijasida vujudga keladigan fuqarolik huquqiy munosabatini baholash va ushbu majburiyatni bajarishda o‘zidagi iqtisodiy resurslarning chiqib ketishi tushuniladi.

Majburiyatlarni baholash nuqtai nazaridan xalqaro tajribaga asoslanib, ularni aniq va noaniq majburiyatlarga ajratish taklifi berildi.

Ta'kidlash joizki, aniq majburiyatlarning buxgalteriya hisobida aniq bahosi belgilangan bo'ladi. Jumladan, kompaniyada qarzlar deb nomlanuvchi majburiyatlar kompaniyaning rejalashtirgan moliyalashtirish bo'yicha strategiyasi bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. Kompaniya o'zining ichki ehtiyojidan hamda kelajakdagi istiqbolli rejasidan kelib chiqib, faoliyatini yaxshilash uchun ma'lum bir summadagi kreditni oladi va ushbu kredit bo'yicha belgilangan foizlar summasi ham aniq belgilangan bo'ladi. Bunda, ushbu majburiyatning buxgalteriya hisobidagi bahosi aniq bo'ladi.

Bizga ma'lumki, debitorlik qarzlar buxgalteriya balansining aktiv qismida, kreditorlik qarzlar esa passiv qismida joylashgan. Shu boisdan amaliyotda majburiyat deyilganida, faqat kreditorlik qarzlarini tushunish odat tusiga kirgan.

Majburiyatlarning farqli xususiyati, ularning kreditor qarz sifatida baholanuvchi va shartli majburiyatlar bilan o'zaro aloqadorlikda tasavvur qilinishidadir. Xalqaro standartlar bo'yicha majburiyatlarning quyidagi turlari mavjud (1-rasm)



1-rasm. Majburiyatlarning tasnifi.

Manba: Muqumov va G'aniyev (2024).

Xulosa va takliflar.

Xulosa qiladigan bo'lsak, respublikamizda buxgalteriya hisobini bosqichma bosqich moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tashkil etish va moliyaviy hisobotlarni tuzish jahon integratsiyasiga yanada kengroq kirib borish imkoniyatini beradi. Bu esa Respublikamizda buxgalteriya hisobini isloh etish va modernizatsiya qilishning yangi bosqichi bo'lib qoladi.

Shuni ta'kidlash joizki, respublikamiz hisob tizimida majburiyatlarni buxgalteriya hisobida asosan ikki turga bo'lib tasniflash amalga oshiriladi: joriy va uzoq muddatli

majburiyatlar. Bu kabi tasniflash ularning faqat muddatini ifodalaydi, ammo majburiyatlarning iqtisodiy mohiyatini to'la-to'kis ochib bermaydi. Bu holat o'z navbatida buxgalteriya hisobida majburiyatlarni to'la-to'kis tushunish va uni hisobda aks ettirishga imkon bermaydi. Shuningdek, ba'zi hollarda muddati o'tgan majburiyatlarni qay tarzda aks ettirish bilan bog'liq muammolar ham uchrab turadi. Bu kabi muammolarning yechimi, albatta, ularni iqtisodiy mohiyati, kelib chiqish sabablariga ko'ra tasniflash lozimligini bildiradi.

Iqtisodiyotning hozirgi sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ishlab chiqargan mahsulotini sotib berish sharti bilan qarzga bermasdan, oldindan to'lov asosida sotsa yoki sotgan mahsulotlari uchun to'lovlarni o'z vaqtida undirib olsa, davlat byudjeti oldidagi majburiyatlarini ham, ishchi va xizmatchilarga ish haqlari, rag'bat (mukofot) pullarini ham muddatida ijro etish imkoniyati paydo bo'ladi, bu esa barqaror iqtisodiyot tizimini shakllantiradi.

Adabiyotlar/Lumepamypa/References:

BHMS (2003) "Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos" nomli O'zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi milliy standarti. 38-band. -T.: UzBAMA, -42 b.

BHXS (2010) "Moliyaviy instrumentlar: Axborotni ochib berish va taqdim qilish" nomli 32 son BHXS, 11-band. Международные Стандарты финансовой отчетности. –М.: Аскери, 1048 с.

Maxmudov S. (2006) Aksiyadorlik jamiyatlarida majburiyatlar hisobi va tahlilini takomillashtirish. Iqt.fan.nom. dis. avtoref. – Toshkent: -22 b.

Muqumov Z.A. va G'aniyev S.V. (2024) Majburiyatlarning iqtisodiy mazmuni va buxgalteriya hisobini tashkil qilishning nazariy asoslari. Международный научный журнал «Научный Фокус» № 15 (100), часть1 Июля.

Qaror (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli "Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida" gi qarori.

Stat.uz (n.d.) O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi veb-sahifasi. www.stat.uz

To'ychiev A. (2010) Majburiyatlarning omilli tahlilini takomillashtirish. // Bozor, pul va kredit. №11, 52-b.

Xoshimov B. (2004) Buxgalteriya hisobi nazariyasi. -T.: O'qituvchi, -320 b.